



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

YOSHLAR FALSAFIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA BIBLIOTERAPIYANING OʻRNI VA IMKONIYATLAR

Nishonova Diyora Tursunovna

Fargʻona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishning mazmuni-mohiyati va konseptual-asoslarini oʻrganish, yoshlar falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishda biblioterapiyaning oʻrni va imkoniyatlarini aniqlashtirish, yoshlar falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishda biblioterapiyadan foydalanishning ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq etish kabimasalalari yoritilgan. Shuningdek, Yangi Oʻzbekistonda yoshlar falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishda biblioterapiyadan foydalanish vazifalari va istiqbollari boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, biblioterapiya, ijtimoiy-falasafiy omillar, shaxs maʼnaviyati, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy dunyoqarash, konsepsiya, insonparvarlik.

РОЛЬ И ВОЗМОЖНОСТИ БИБЛИОТЕРАПИИ В ПОВЫШЕНИИ ФИЛОСОФСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Нишонова Диёра Турсуновна

Ферганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье освещены вопросы изучения содержания и концептуальных основ повышения философского мировоззрения молодежи, уточнения роли и возможностей библиотерапии в повышении философского мировоззрения молодежи, изучения социально-философских факторов использования библиотерапии в повышении философского мировоззрения молодежи. Также разработаны предложения и рекомендации по задачам и перспективам использования библиотерапии для повышения философского мировоззрения молодежи в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: молодежь, мировоззрение, философское мировоззрение, библиотерапия, социально-философские факторы, духовность личности, социальное развитие, научное мировоззрение, концепция, гуманизм.

ROLE AND POSSIBILITIES OF BIBLIOTHERAPY IN ENHANCING THE PHILOSOPHICAL OUTLOOK OF YOUNG PEOPLE

Nishonova Diyora Tursunovna

Fergana State University, Independent Researcher

Abstract

This article covers the study of the content and conceptual foundations of increasing the philosophical worldview of young people, clarifying the role and possibilities of bibliotherapy in increasing the philosophical worldview of young people, studying the socio-philosophical factors of using bibliotherapy in increasing the philosophical worldview of young people. Proposals and recommendations have also been developed on the tasks and prospects for using bibliotherapy to increase the philosophical worldview of young people in New Uzbekistan.

Keywords: youth, worldview, philosophical worldview, bibliotherapy, socio-

philosophical factors, individual spirituality, social development, scientific worldview, concept, humanism.

Globalashuv sharoitida intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Insoniyat tomonidan yaratilgan umumbashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan yaratilgan g'oya) tashkil etadi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotni belgilab beruvchi kreativ va innovatsion g'oyalarni asoslashda shaxsning kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyatda shaxsning fikrlash malakasi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaligiga bog'liq. Zero, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qish shaxsda fikrlash, tasavvur, tahlil hamda tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishini ta'minlovchi g'oyalar shakllanadi. So'nggi uch yil davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bu borada keng ko'lamga ega tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mo'jizaviy ne'mat — moddiy va ma'naviy ashyoga ega bo'lgan. Ular: ovoz, nutq, yozuv va kitob. Taraqqiyotning turli bosqichlarida evolyutsion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) asosida insoniyat qo'lga kiritgan bu ashyolar sivilizatsiyaning navbatdagi bosqichi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv yordamida o'zaro ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, xohish-istaklarni, intilishlarni bir-biriga bayon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, kitob vositasida o'z ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kitob o'qish, kitobxonlikning jamiyat va shaxs uchun ahamiyati, kitobxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-individual jihatlari bo'yicha bir qator ishlar olib borilgan. O'zbekistonda yoshlar dunyoqarashi va kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari E. Yo'ldosheva, A. Umarov, Yo. Qayumxo'jayeva, B. G'aniyeva, A. Abdullayev, G. Amanova, U. Bek, X. Davron, G'. Shirinov kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan S. I. Abakumova, A. V. Avdeeva, L. I. Belenkaya, G. I. Bondarenko, Ye. V. Buneeva, Ye. I. Golubeva, M. A. Yumatovalarning ishlarida yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularda kitob o'qish malakasi, madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xosligi, kitob o'qishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyalari masalalari yoritib berilgan.

Xorijiy davlatlar pedagog va psixologlari L. Hell, D. Ziegler, D. Fallows, K. Merga, A. Perrin, D. F. Roberts kabilarning ilmiy izlanishlarida Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH davlatlari misolida kitob o'qish va kitobxonlikning aksiologik jihatlari, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirish jarayonining tarkibiy asoslari, muhim yo'nalishlari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insoniyat tarixida dinlarning vujudga kelishida ham kitob asosiy vosita bo'lganligini ko'rish mumkin. Xususan, Muso alayhissalom "Tavrot", Iso alayhissalom "Injil" ("Bibliya") hamda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Qur'on" kabi muqaddas kitoblar orqali kishilar o'rtasida o'zlari mansub bo'lgan din asoslarini targ'ib etgan. Alloh tomonidan so'nggi uch nafar payg'ambarga muayyan kitoblarning nozil qilinishi bu shakldagi moddiy ashyoning ma'naviy-ruhiy va intellektual imkoniyatlarini to'la namoyon qilishga asos bo'la oladi. Zero, og'zaki bayon etilgan fikrlarni avloddan avlodga uzatishda ularda ifoda etilgan asl maqsad, g'oya, qarashga ziyon etadi: ba'zan shaklan, ko'p hollarda mazmunan o'zgaradi. Yozma bayon etilib, boshqalarga uzatilgan har qanday fikr, g'oya, qarash o'zining asl "qiyofasi"ni, shaklini, shu bilan birga,

mazmunini saqlab qoladi. Xatti-harakat, ijtimoiy axloqning tub negizi, kishilar uchun ma'naviy-axloqiy yo'riqnoma bo'lgan diniy manbalar — "Injil", "Tavrot", "Qur'on"dagi g'oyalarning aslidek saqlanishi, o'zgartirilmasligi yagona tartib-qoidalar sifatida barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli ularning kitob holda mavjudligi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimdan paydo bo'lgan. Jumladan, O'rta Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Ular hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlagan. Bu davrda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda shaxsiy kutubxonalarning ahamiyati ham katta bo'lgan. Ularni, asosan, boy tabaqaga mansub bo'lgan kishilar tashkil etganlar [1, 19].

Markaziy Osiyoda kutubxonalar o'tmishdoyoq rivojlangan bo'lib, ular asosan xon saroylari va madrasalar tasarrufida bo'lgan. Mamlakat hukmdorlari kutubxonalarning ravnaqi, ularni boyitish, xattotlar bilan ta'minlash sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelganlar.

Qadimgi kutubxonalar orasida eng mashhurlari Aleksandriya (Iskandariya), Buxoro amirligi hamda Bag'dod kutubxonalari bo'lgan. Biroq, XX asrga qadar kutubxonachilik pedagogikasi u qadar rivojlanmagan edi.

Tarixiy manbalarda X asrning ulug' olimlaridan biri bo'lgan andalusiyalik Ibn Rushdning umri davomida faqat ikki kungina, ya'ni birinchisi uylangan va ikkinchisi otasi vafot etgan kechada kitob o'qimaganligi, tobe'inlardan Urva ibn Zubayr roziallohu anhuning esa hayotida bir marta — qorason boshlangan oyog'i narkozsiz kesib tashlanganda hushdan ketib, kitob (Qur'on) o'qiy olmaganligiga oid ma'lumotlar keltiriladi [2].

Kitobni ulug'lash, bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko'rsatgan. Masalan, namanganlik ma'rifatparvarlardan biri Ishoqxon Ibrat o'z uyida "Kutubxonai Ishoqiya" deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar o'rin olgan. Ishoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o'qitgan o'quvchilarga, shuningdek, qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblarning xarakteri, yo'nalishiga ko'ra bir necha bo'limlarga ajratilgan. Xususan, maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'limdan S. Saidazizovning "Ustodi avval", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", R. Yusufbek hoji o'g'lining "Rahbari hisob" kabi darslik va o'quv qo'llanmalari o'rin olgan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyib borgan. Ma'rifatparvar tomonidan kutubxona faoliyatining yo'lga qo'yilishi, kitobxonlar tomonidan kitoblarning olinishi va topshirilishi qayd etilgan daftarlarning yuritilishi, shuningdek, o'quvchilarning kitob mutolaa qilishlari, o'qishlari shaxsan nazorat qilib borilgan [3].

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning faol kitobxon bo'lishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo'nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish zamonaviy an'ana tusini olmoqda [4, 10]. Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an'anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ'ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan. Hozirgi kunda "... aholi jon boshiga yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchilikni olgan Shveysariya kutubxona-axborot tarmoqlari soni bo'yicha ham birinchi o'rin"ni egallamoqda. "Besh million aholi yashaydigan Finlyandiyada 1500 ommaviy kutubxona, shuncha kitob tarqatuvchi punkt, 250 ta ko'chma kutubxona (bibliobus) ishlab turibdi".

Alohida qayd etib o'tish kerakki, "Finlyandiyada barcha bolalarning o'rganishi va rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakat

madaniyat jamg'armasi tomonidan uyushtirilgan 1,2 million yevro miqdoridagi qiymatga ega bo'lgan aksiyaga ko'ra, 2019–2021 yillarda tug'iladigan barcha chaqaloqlar sovg'a sifatida kitob oladi [5].

Kitoblarni chop etish va ularning savdosini izchil yo'lga qo'yishda Norvegiya tajribasi ham boshqa davlatlar uchun namuna bo'la oladi. Mazkur davlatda ushbu soha "ijtimoiy-madaniy rivojlanishning alohida yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Mualliflar, nashriyotlar hamda davlat o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa mavjud bo'lib, unga ko'ra yangi kitob chop etilsa, uning 1000 nusxasi (agar bolalar adabiyoti bo'lsa 1500 donasi) hukumat tomonidan sotib olinadi. Sotib olingan kitoblar mamlakatdagi barcha kutubxonalarga teng taqsimlangan holda tarqatiladi" [6].

Sharq davlatlari qadimdan kitobga bo'lgan ijtimoiy-tarixiy munosabatning ijobiyligi bilan jahon hamjamiyati e'tiborini tortib kelgan. Bugungi kunda ham "kitob targ'ibotining eng yaxshi namunasi Eron Islom Respublikasida amalga oshirilmoqda. Mamlakatda turli mavzularda cho'ntak kitoblari nashr etilgan bo'lib, mazkur tadbir o'qishga bo'lgan qiziqish pasayishining oldini olishga yordam bergan". Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasida global axborotlashuv muhitida aholi, xususan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamlı ijtimoiy harakatlar negizida targ'ibotning innovatsion vositalarini izlash yetakchi o'rin tutadi. Ayni o'rinda bir qator davlatlarning bu boradagi tajribalarini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiq sanaladi.

AQSH kitob nashr etuvchilari Kengashining vakili bo'lgan Patrika Jurning qayd etishicha, Amerikada kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'lida amalga oshirilgan choralardan biri — kitob o'qilayotgan holatni ifodalovchi reklama plakatlarida taniqli shaxslar qiyofasining berilishi sanaladi.

Seul shahrida "Kitob o'qishni rivojlantirish va uning kitob bozoriga ta'siri" nomli kitob ko'rgazmasida "Chu San Deyli" gazetasining muxbiri Kim Ki Chul xonadonlardagi mehmonxonani kutubxonalarga aylantirish kitobxonlar sonini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi [7].

Vetnamda "kitob ko'chalari" tashkil etilgan bo'lib, ushbu ko'chalarda doimiy ravishda turli mavzularda chop etilgan kitoblarning mualliflari bilan uchrashuv, seminar va konferensiyalar uyushtiriladi... Nashriyotlar va kitobxonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash yo'lida ko'plab yuridik va jismoniy shaxslar oilaviy kutubxonalarni hamda o'zlari joylashgan hududlarda "kitobxonlik muhiti"ni hosil qilishda faollik ko'rsatmoqda [8]. Rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarga ijtimoiy, pedagogik hamda madaniy kutubxona xizmatini ko'rsatish ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan [9, 16] muhim soha sanaladi. Markaziy Osiyoda milliy kutubxonani barpo etish va uning fondini tarixiy hamda zamonaviy asarlar bilan to'ldirishga qaratilgan umummilliy harakatning yorqin namunasi sifatida Tojikiston tajribasini misol qilib keltirish o'rindir.

Tojikiston milliy kutubxonasining binosi 2012-yil 20-martda, Navro'z bayrami arafasida ochilgan. Bu voqea arafasida mamlakatda kitob to'plash umummilliy aksiyasi o'tkazilgan va unda davlat, jamoat tashkilotlari, aholi faol ishtirok etgan. Natijada 3 millionga yaqin kitob topshirilgan. Hozirda kutubxona fondida 6 milliondan ortiq kitob, gazeta-jurnal, elektron materiallar saqlanadi. Ochiq kitob shaklida qurilgan to'qqiz qavatli bino (uzunligi 167 metr, balandligi 52 metr, umumiy maydoni 45 ming kvadrat metr) Markaziy Osiyodagi eng katta kutubxona sanaladi. Bu yerga kiraverishda tojik xalqining 22 nafar atoqli fan, adabiyot va siyosat arbobi byusti joylashgan. Ular sirasida Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Rudakiydan tortib Mirzo Tursunzoda va Emomali Rahmongacha bor. Imkoniyati cheklangan kishilar uchun alohida bo'lim xizmat qiladi: bu yerda ovozli nashrlar va Brayl alifbosidagi kitoblar saqlanadi. Milliy kutubxonaning yangi binosi qurilishi boshlangan kun — 4-sentabr mamlakatda "Kitob kuni" deb e'lon qilingan [10].

Jahonning bir qator rivojlangan davlatlarida "Kitob ko'rgazmasi", "Kitob bayrami", "Kitob yarmarkasi" kabi tadbirlarning tashkil etilishi an'anaga aylangan. So'nggi yillarda mazkur an'ana Markaziy Osiyo davlatlarida ham keng yoyilmoqda. Jumladan, 2018-yilning 25–28-aprel

kunlari Qozog‘iston Respublikasining Ostona shahrida tashkil etilgan III Yevroosiyo xalqaro kitob yarmarkasida o‘nlab mamlakatlarning adiblari, nashriyotlar va kitob do‘konlarining vakillari ishtirok etdi. Kitob o‘qish va kitobxonlikning o‘ziga xos targ‘iboti bo‘lgan mazkur tadbir turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan adiblar, nashriyotlar va kitob do‘konlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Fuqarolarda kitob o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda kitob savdosi ham muhim o‘rin tutadi. Global axborotlashuv sharoitida kitob savdosini tashkil etishning zamonaviy shakli — internet do‘koni faoliyatini yo‘lga qo‘yishdir. Kitob savdosini tashkil etuvchi “LitRes”, “Labirint”, “OZON” kabi internet do‘konlari faoliyati ham “global axborotlashuv va texnologiyalashuv sharoitida yangi urfdagi an‘ana” sifatida vujudga keldi. Ayni vaqtda “ko‘plab xorijlik va mahalliy yozuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda tezkor targ‘ib etish to‘lqinida “V Kontakte”, “Facebook”, “Twitter”, “Instagram”, “LiveJournal” va boshqa resurslarda o‘z sahifalarini yaratdi va ularni faol yuritib kelmoqda” [80, 20]. Mazkur hodisaning aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik targ‘ibotini kuchaytirishga ham xizmat qilishi quvonarlidir.

So‘nggi yillarda yuzaga kelgan yangi internet hodisasi — chellenj (ingl. “challenge” – da‘vat) ham aholi, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qish va kitobxonlik g‘oyalarini axborot texnologiyalari orqali keng targ‘ib etishda alohida o‘rin tutmoqda. Chellenj — o‘yin shaklidagi bahsning qandaydir harakatlar asosida amalga oshirishni taklif qilish hisoblanadi. Ayni vaqtda yoshlarning kitobxonlik faoliyatini kuchaytirish, rag‘batlantirish maqsadida “nashriyotlar, kitob do‘konlari, ijtimoiy tashkilotlarning tashabbuslariga muvofiq chellenj yo‘lga qo‘yilmoqda” [11].

Mutolaaga qiziqishning susayishi, o‘z navbatida, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat‘iy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda “uzoq aholi punktlarida yashaydigan hamda kutubxonalarga borish imkoniyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida ko‘chma kutubxona xizmatini rivojlantirish, kutubxonalararo abonement va hujjatlarni elektron yetkazib berishni, kutubxona resurslaridan masofaviy foydalanishni yo‘lga qo‘yish, ushbu ziyo maskanlarida individual, guruh hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, yuksak badiiy asarlarga oshno qilish, mamlakatimizdagi kutubxonalar imijini yaxshilash bo‘yicha aniq mexanizmlar”ni yaratish kabi takliflar ilgari surilmoqda [11].

Yozuvchi va millioner Stiv Sibold dunyoning eng boy odamlaridan ba‘zilari bilan 30 yildan ortiq suhbatlashdi va ularning ko‘pchiligini mutolaaga bo‘lgan muhabbat birlashtirib turishini aniqladi. “O‘rta sinf romanlar, tabloidlar va ko‘ngilochar jurnallar o‘qiydi. Badavlat odamning xonadoniga kirsangiz, birinchi ko‘zingizga tashlanadigan narsalardan biri uni muvaffaqiyatga olib kelgan ulkan kutubxona bo‘ladi”, — deydi yozuvchi. Mashhur milliarderlarning ko‘pchiligi ushbu nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Masalan, Bill Geyts yiliga 50 ga yaqin kitob o‘qiydi, Uorren Baffett ish kunining 80 foizini mutolaa uchun sarflaydi. Ilon Maskdan u raketa qurishni qanday o‘rganganligi haqida so‘rashganda, u “Men kitob o‘qiyman” deb javob bergan [13].

Xalqaro miqyosda turli davlatlarda kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Ana shunday tadqiqotlardan biri “NOP World” xalqaro reyting agentligi tomonidan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2016-yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston yetakchi o‘rinni egallagan. Ushbu davlatda aholi haftasiga o‘rtacha 10,7, Tailandda 9,4, Xitoyda 8, Filippinda 7,6, Chexiyada 7,4, Rossiyada 7,1, Shvetsiyada 6,9, Fransiyada 6,9 va Vengriyada 6,8 soat kitob o‘qiladi.

Shu bilan birga, qator agentliklar izchil ravishda jahon mamlakatlari aholisining kitobga bo‘lgan talab va ehtiyojini o‘rganib boradi. Agentlik tomonidan e‘lon qilingan jahonda kitobga bo‘lgan talabni o‘rganishga doir tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi 30 yilda bir nomdagi

kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQSHda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda.

Yoshlar falsafiy dunyoqarashi ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida kognitiv (bilimlar tizimi), aksiologik (qadriyatlar tizimi) va prakseologik (amaliy faoliyatga yo'naltirilganlik) komponentlar birligida namoyon bo'lib, uning rivojlanishi ijtimoiy determinatsiya va shaxsiy faollik dialektikasi asosida kechadi. Biblioterapiya falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning reflektiv-interpretativ mexanizmi sifatida asoslanib, u orqali matnni germeneytik tahlil qilish yoshlarda chuqur ma'naviy anglash va ongli pozitsiya shakllanishini ta'minlaydi. Mutolaa jarayonida identifikatsiya, katarsis va insayt bosqichlarining amal qilishi yoshlar ma'naviy tajribasining interiorizatsiyasiga olib keladi. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida aksiologik plyuralizm kuchayishi yoshlar dunyoqarashida qadriyatli noaniqlikni keltirib chiqarayotgani hamda biblioterapiya ushbu holatda ma'naviy barqarorlashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Biblioterapiya sotsializatsiya jarayonida yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlab, ularda fuqarolik ongi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Falsafiy dunyoqarashni yuksaltirishda aksiologik yondashuv, dialektik metod va tizimli tahlil metodologiyasining uyg'un qo'llanilishi biblioterapiyaning ijtimoiy-falsafiy imkoniyatlarini chuqur ochib berishga imkon beradi. Yoshlar mutolaa madaniyatining pasayishi ma'naviy immunitet susayishiga olib kelishi, biblioterapiya esa ma'naviy-axloqiy barqarorlikni mustahkamlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Biblioterapiyaga tayangan holda yoshlar falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilib, unda ma'no interpretatsiyasi, qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish va ongli hayotiy pozitsiyani qaror toptirish bosqichlari tizimlashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Умаров А. Мутулаа маданияти – тараққиёт омили // *Бетгер ўқишлари–2003: “Кутубхона устиворлиги” давра суҳбати материаллари.* – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2003. – Б. 19.
2. Китоб ўқимаган халқ жоҳилликка маҳкум. – URL: <http://ufq.uz/2017/11/13/548>
3. Ибрат, Ажзий, Сўфизода. – Т.: Шарқ, 1999. – 38 б.
4. Хафизов Д. М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: автореф. дис. ... канд. культурологии. – Челябинск, 2017. – 17 с.
5. Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Эллиққалъа тумани Кенгаши. 10 ёшли бола ҳакамларни лол қолдирди. – URL: <http://ellikqala.uz/922-10-eshli-bolakay-akamlarni-lol-oldirdi.html>
6. “Болаларсиз” болалар кутубхонаси // *Kun.uz.* – URL: <https://kun.uz/news/2019/01/21/bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi>
7. Чтобы ребенок стал читайкой! 7 секретов воспитания интереса к чтению. – URL: <http://chitalochka-ru.ru/ychim/chitayka.html>
8. Юматова М. А. Интерес к чтению: как его пробудить? – URL: <http://xn--80aajcsc5a0a.xn--p1ai/stati/501680>
9. Қаяомхўжаева Ё. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А. Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 16 б.
10. Довруғи дoston Душанбе ёки мўъжаз пойтахт мўъжизалари // *Daryo.uz.* – URL: <https://daryo.uz>
11. Хафизов Д. М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: автореф. дис. ... канд. культурологии. – Челябинск, 2017. – 20 с.
12. Абдуллаев А. Мутулаа маданияти интеллектуал салоҳиятни белгилаб беради // *Kun.uz.* – URL: <http://betakrorbuxoro.uz/uz/2018/07/06/otvolodiev-suhbatlashdi>